Annotatsiya. 2021–2025-yillar O‘zbekiston bank sektori uchun iqtisodiy modernizatsiya davri bo‘ldi. Bu jarayonda davlat ulushi qisqarib, raqamli moliyaviy xizmatlar kengaydi, Basel III/IV standartlari joriy etildi va regulyator talablari kuchaydi. Tadqiqot ichki nazorat tizimi (Internal Control System — ICS) samaradorligi bilan banklarning moliyaviy barqarorligi (Financial Stability — FS) o‘rtasidagi bog‘liqlikni empirik va nazariy jihatdan o‘rganadi. 2021–2025-yillardagi 23 ta tijorat bankining panel ma‘lumotlari tahliliga ko‘ra, ichki nazorat tizimi samaradorligi 1 ballga oshganda muammoli kreditlar (NPL) 0,94 punktga kamayadi, aktivlar rentabelligi (ROA) 0,41 punktga oshadi, likvidlik koeffitsiyenti (LCR) esa 7 punktga yaxshilanadi. Raqamlashtirish, IT-audit, compliance tizimlari va xodimlar malakasi ichki nazorat tizimi samaradorligining asosiy omillari ekani aniqlanib, ichki nazorat tizimi bank barqarorligini ta‘minlovchi strategik boshqaruv mexanizmi sifatida baholandi.

Kalit so‘zlar: ichki nazorat tizimi (ICS); moliyaviy barqarorlik (FS); bank boshqaruvi; risk-menejment; kapital yetarliligi (CAR); muammoli kreditlar (NPL); aktivlar rentabelligi (ROA); likvidlik (LCR); IT-audit; compliance; raqamlashtirish; kiberxavfsizlik; audit mustaqilligi; inson kapitali; Basel III/IV; COSO; iqtisodiy barqarorlik.

Abstract. The period of 2021–2025 marked a phase of economic modernization for Uzbekistan’s banking sector. During this transformation, the state’s share in the banking system decreased, digital financial services expanded, Basel III/IV standards were implemented, and regulatory requirements intensified. This study empirically and theoretically examines the relationship between the effectiveness of the Internal Control System (ICS) and the Financial Stability (FS) of banks. Based on panel data from 23 commercial banks for 2021–2025, the results indicate that a one-point increase in ICS efficiency leads to a 0.94-point decrease in non-performing loans (NPLs), a 0.41-point increase in return on assets (ROA), and a 7-point improvement in the liquidity coverage ratio (LCR). The findings reveal that digitalization, IT audit, compliance mechanisms, and staff competency are the key determinants of ICS efficiency. Overall, the internal control system is evaluated as a strategic management mechanism that ensures the financial stability and resilience of the banking sector.

Keywords: Internal Control System (ICS); Financial Stability (FS); bank governance; risk management; capital adequacy (CAR); non-performing loans (NPLs); return on assets (ROA); liquidity coverage ratio (LCR); IT audit; compliance; digitalization; cybersecurity; audit independence; human capital; Basel III/IV; COSO; economic stability.

Аннотация. Период 2021–2025 годов стал этапом экономической модернизации банковского сектора Узбекистана. В ходе данной трансформации сократилась доля государства в банковской системе, расширились цифровые финансовые услуги, были внедрены стандарты Basel III/IV, а также усилились регуляторные требования. В данном исследовании эмпирически и теоретически изучается взаимосвязь между эффективностью системы внутреннего контроля (Internal Control System — ICS) и финансовой устойчивостью банков (Financial Stability — FS). На основе панельных данных 23 коммерческих банков за 2021–2025 годы результаты показывают, что повышение эффективности ICS на 1 балл приводит к снижению доли проблемных кредитов (NPL) на 0,94 пункта, росту рентабельности активов (ROA) на 0,41 пункта и улучшению коэффициента покрытия ликвидности (LCR) на 7 пунктов. Выявлено, что цифровизация, IT-аудит, механизмы compliance и квалификация персонала являются ключевыми факторами эффективности системы внутреннего контроля. В целом система внутреннего контроля оценивается как стратегический механизм управления, обеспечивающий финансовую устойчивость и стабильность банковского сектора.

Ключевые слова: система внутреннего контроля (ICS); финансовая устойчивость (FS); банковское управление; риск-менеджмент; достаточность капитала (CAR); проблемные кредиты (NPL); рентабельность активов (ROA); коэффициент покрытия ликвидности (LCR); IT-аудит; compliance; цифровизация; кибербезопасность; независимость аудита; человеческий капитал; Basel III/IV; COSO; экономическая устойчивость.

KIRISH

2021–2025-yillar O'zbekiston bank tizimi uchun tub iqtisodiy va institutsional o'zgarishlar davri bo'ldi. Mazkur besh yillikda sektor milliy iqtisodiyotning modernizatsiya markaziga aylandi, bunda bank tizimining tuzilmasi, boshqaruv mexanizmlari va nazorat vositalari xalqaro standartlarga moslashtirildi. Davlat ulushining bosqichma-bosqich qisqarishi, tijorat banklarining korporativ transformatsiyasi, xususiy va xorijiy kapitalning faol kirib kelishi, shuningdek, raqamli moliyaviy xizmatlarning jadal kengayishi yangi imkoniyatlar bilan bir qatorda, bank tizimi oldiga moliyaviy barqarorlikni ta'minlash, risklarni samarali boshqarish, aktivlar sifatini oshirish hamda mijozlarga ko'rsatiladigan xizmatlar sifatini yanada yaxshilash kabi dolzarb vazifalarni ham qo'ydi.

Global moliya bozorlaridagi beqarorlik, foiz stavkalarining tebranishi, pandemiya oqibatlari va kibernetika xavfsizlik tahdidlarining ortishi banklarning riskka chidamliligini qayta baholashni talab qildi. Shu jarayonda ichki nazorat tizimi (Internal Control System — ICS) bank boshqaruvining markaziy elementi sifatida alohida e'tibor qozondi. Ayniqsa, pandemiyadan keyingi davrda kredit portfellari sifati, nazorat va audit jarayonlarini optimallashtirish, risk-menejmentni xalqaro amaliyotga integratsiya qilish zarurati banklarda ichki nazorat tizimining strategik ahamiyatini yanada kuchaytirdi.

Banklarning moliyaviy barqarorligi, o'z navbatida, bir qator asosiy moliyaviy ko'rsatkichlar orqali baholanadi — kapital yetarliligi (CAR), likvidlik darajasi (LCR), aktivlar rentabelligi (ROA) hamda muammoli kreditlar ulushi (NPL). Ushbu indikatorlar ichki nazorat tizimining samaradorligiga bevosita bog'liq bo'lib, ichki nazorat tizimi orqali amalga oshiriladigan audit, monitoring va compliance jarayonlari risklarni kamaytirish, resurslardan oqilona foydalanish va moliyaviy natijalarni barqarorlashtirishga xizmat qiladi. Shu sababli ichki nazorat tizimi samaradorligining banklarning moliyaviy barqarorligiga ta'siri masalasi nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham dolzarb ilmiy yo'nalishga aylandi.

Shunga qaramay, O'zbekiston bank tizimida ichki nazorat samaradorligi va moliyaviy barqarorlik o'rtasidagi empirik o'zaro bog'liqlik hali yetarli darajada chuqur o'rganilmagan. Ayniqsa, 2021–2025-yillarda amalga oshirilgan transformatsiyalar fonida bu masala kompleks statistik, iqtisodiy va institutsional tahlilni talab etmoqda.

Mazkur tadqiqot ichki nazorat tizimining (ICS) amaldagi samaradorligini va uning banklarning moliyaviy natijalariga ta'sirini chuqur tahlil etishga qaratilgan. Unda Internal Control Score (ICS) indeksining moliyaviy barqarorlik (FS) ko'rsatkichlariga — kapital yetarliligi (CAR), aktivlar rentabelligi (ROA) hamda muammoli kreditlar (NPL) darajasiga bo'lgan empirik ta'siri o'rganiladi. Shu bilan birga, tadqiqot raqamlashtirish va avtomatlashtirilgan nazorat mexanizmlarining ICS–FS o'zaro bog'liqligini kuchaytirish yoki zaiflashtirishdagi rolini baholaydi hamda ichki nazorat tizimi tarkibidagi asosiy komponentlar — audit mustaqilligi, IT-audit, compliance, AML/KYC tizimlari va inson kapitali — orasida banklarning moliyaviy barqarorligini eng samarali ta'minlaydigan omillarni aniqlashga qaratilgan.

Tadqiqot ushbu savollarga javob topish orqali ichki nazorat tizimini zamonaviy bank boshqaruvida strategik vosita sifatida qayta talqin etishni maqsad qiladi. Shuningdek, ichki nazorat tizimi samaradorligini raqamli transformatsiya, risk madaniyati va ESG tamoyillari bilan uyg'unlashtirish orqali O'zbekiston bank tizimining barqaror rivojlanishiga oid ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

So'nggi yillarda jahon bank tizimida ichki nazorat tizimining (Internal Control System — ICS) moliyaviy barqarorlikka (Financial Stability — FS) ta'siri iqtisodiy xavfsizlik, kredit sifati va kapital boshqaruvi kontekstida eng muhim ilmiy yo'nalishlardan biriga aylandi. Ilmiy manbalar shuni ko'rsatadiki, ichki nazorat tizimi banklarda risklarni kamaytirish, kapital yetarliligini ta'minlash, aktivlardan foydalanish rentabelligini oshirish va muammoli kreditlarni (NPL) qisqartirishda muhim rol o'ynaydi.

Arena va Azzone (2022) Italiya bank sektorida olib borgan tadqiqotida ichki audit bo'limlarining mustaqilligi va tezkorligi moliyaviy ko'rsatkichlarga ijobiy ta'sir ko'rsatishini aniqlagan. Aynan audit muvofiqlik darajasi yuqori bo'lgan banklarda NPL past, ROA esa yuqori bo'lgan. Bu ichki nazorat tizimining strategik xatarlarning oldini olishdagi o'rni borasida muhim dalil hisoblanadi [1].

Hadi, Abdulzohra va Hazen (2025) o'z tadqiqotlarida Yevropa banklarida ichki nazorat tizimi standartlarini kuchaytirish moliyaviy barqarorlikning asosiy indikatorlari — CAR, LCR va NPLga sezilarli ta'sir ko'rsatishini isbotlashgan. Ularning fikricha, samarali ichki nazorat tizimi mavjud bo'lgan banklarda kredit risklarini boshqarish darajasi yuqori bo'ladi, bu esa moliyaviy barqarorlikni mustahkamlaydi [2].

Suzdaltseva (2024) tomonidan olib borilgan "Predictors of Bank Risk: An Empirical Analysis of European Banks" nomli tadqiqotda ichki nazoratdagi sustlik bank tizimining zaiflashishiga, ROA pasayishiga va NPL o'sishiga olib kelishi aniqlangan. U, shuningdek, ichki auditning mustaqilligi va raqamli nazorat tizimlari mavjud



bo'lgan banklarda barqarorlik yuqoriligini qayd etadi [3].

Koxherri (2025) Albaniya bank sektorini tahlil qilib, NPLlarning o'sishi ROAni pasaytirishini va ichki nazorat tizimi samaradorligi past bo'lgan banklarda bu jarayon yanada kuchliroq kechishini ta'kidlaydi. U, shuningdek, ichki nazorat tizimi indeksining kuchaytirilishi kredit portfelining sifati va daromadlilik darajasini yaxshilashini ko'rsatgan [4].

Yevropaning G'arbiy qismida olib borilgan tadqiqotlarda ham ICS–FS o'zaro ta'siriga katta e'tibor berilgan. Masalan, Goniszewski (2024) Polsha banklari misolida ichki nazorat tizimi mexanizmlarining samaradorligi pandemiya davrida banklarning moliyaviy chidamliligini saqlab qolishda muhim rol o'ynaganini ko'rsatgan [5].

Vargas-Herrera va Murcia (2023) o'zining "Financial Stability Report" tadqiqotida Yevropa va AQSh banklari o'rtasida ichki nazorat tizimi ko'rsatkichlari farqini tahlil qilib, ichki nazorat tizimi samaradorligi yuqori bo'lgan banklarda NPL past, CAR yuqori, ROA esa ijobiy tendensiyada ekanini isbotlagan [6].

Bundan tashqari, Sievidova (2025) Yevropa va AQSh moliyaviy institutlarida ichki nazorat tizimi samaradorligi bilan moliyaviy zaiflik o'rtasidagi bog'liqlikni o'rganib, ichki nazoratning ijtimoiy va institutsional kapital barqarorligiga ham ta'sir etishini ko'rsatgan [7].

Shunga qaramay, Markaziy Osiyo va O'zbekiston sharoitida ICS–FS munosabatining empirik tahlillari deyarli mavjud emas. Shu sababli 2021–2025-yillardagi islohotlar fonida O'zbekiston bank tizimida ichki nazorat tizimi samaradorligining moliyaviy barqarorlikka ta'sirini tahlil qilish dolzarb ilmiy masala hisoblanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqot mixed-method, ya'ni miqdoriy va siflatli yondashuv asosida ishlab chiqilgan bo'lib, ichki nazorat tizimi samaradorligining moliyaviy barqarorlikka ta'sirini aniq o'lchash va chuqur tahlil qilishga qaratilgan. Aralash metodologiya tanlanishining sababi moliyaviy ko'rsatkichlar orqali statistik aniqlikni ta'minlash (miqdoriy jihat) bilan bir qatorda, bank mutaxassislarining real tajribasi va amaliy mulohazalarini hisobga olish (sifatli jihat) zarurati bilan bog'liq.

Nazariy asoslar sifatida xalqaro me'yoriy hujjatlar — COSO (Internal Control — Integrated Framework, 2021), Basel III/IV talablarida belgilangan risk boshqaruvi prinsiplari, BCBS 239 (Risk Data Aggregation and Reporting), shuningdek, IMF (Financial Soundness Indicators Framework) va OECD (Corporate Governance Standards) ko'rsatmalari asos qilib olindi. Ushbu standartlar ichki nazorat tizimi komponentlarini xalqaro amaliyot bilan solishtirish imkonini berdi.

Tahlil uchun ishonchli va turli darajadagi birlamchi hamda ikkilamchi manbalar jalb etildi:

- O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki (CBU) tomonidan e'lon qilingan statistik hisobotlar va bank sektorining moliyaviy ko'rsatkichlari;
- 2021–2025-yillarga oid banklarning yillik moliyaviy hisobotlari, ularning IFRS asosida tuzilgan balanslari, foyda va zarar ko'rsatkichlari;
- CBU stress-test natijalari, xususan, kapital yetarliligi, likvidlik va NPL indikatorlari bo'yicha yakuniy hisobotlar;
- ichki audit bo'limlari va risk-menejment departamentlarining yig'ma hisobotlari, audit natijalari, compliance monitoringi va AML/KYC holatlari bo'yicha ichki ma'lumotlar.

Tadqiqot doirasida quyidagi indekslar ishlab chiqildi:

— Moliyaviy barqarorlik indeksi (MSI). Moliyaviy barqarorlik ko'p o'lchovli tushuncha bo'lgani uchun uni yagona indeksda ifodalash maqsadida quyidagi formuladan foydalanildi:

$$MSI=0.3(CAR)+0.25(LCR)+0.25(ROA)-0.2(NPL)$$

Bu yerda:

CAR (Capital Adequacy Ratio) – kapitalning riskka mos yetarliligi koeffitsiyenti;

LCR (Liquidity Coverage Ratio) – qisqa muddatli likvidlik darajasi;

ROA (Return on Assets) – aktivlardan foydalanish samaradorligi;

NPL (Non-Performing Loans) – muammoli kreditlar ulushi.

MSI 0 dan 1 gacha bo'lgan shkalada normallashtirilib, banklarning umumiy moliyaviy barqarorlik darajasini baholash imkonini beradi.

- Ichki Nazorat Samaradorligi Indeksi (ICS). Ichki nazorat tizimi murakkab va ko'p komponentli bo'lgani sababli, ichki nazorat tizimi samaradorligi 10 komponent asosida baholandi. Har bir komponent 0 dan 1 gacha ball berish orqali o'lchandi va yakuniy indeks 0–10 oralig'ida normalizatsiya qilindi.

Komponentlar:

Audit mustaqilligi – ichki audit qo'mitasining rahbariyatdan mustaqillik darajasi;

IT-audit tizimi – raqamli audit va texnik nazorat jarayonlarining mavjudligi;

Compliance mexanizmi – siyosat va tartiblarning regulyativ normalarga muvofiqligi;

AML/KYC siyosati – mijoz identifikatsiyasi va noqonuniy operatsiyalarning oldini olish mexanizmlari;
 Risk monitoring tizimi – kredit, operatsion va likvidlik risklarini kuzatish tizimi;
 Xodimlar malakasi – ichki auditorlar, compliance ofitserlar va risk menejerlarining tajribasi;
 Raqamlashtirish darajasi – ichki nazoratda avtomatlashtirilgan tizimlar ulushi;
 BCBS239 moslik – risk ma'lumotlarini yig'ish va konsolidatsiya qilish darajasi;
 Biznes-protsess nazorati – operatsion faoliyatdagi jarayonlarni tahlil qilish mexanizmi;
 Kiberxavfsizlik nazorati – IT-infratuzilmaning tahdidlarga qarshi himoyalanganlik darajasi.
 Har bir komponent uchun ballar ichki audit hisobotlari va regulyator ma'lumotlariga asoslanib berildi.
 Yakuniy ichki nazorat tizimi indeksi har bir bank kesimida o'rtacha qiymat sifatida hisoblandi.
 Ichki nazorat samaradorligining moliyaviy barqarorlikka ta'sirini aniqlash uchun quyidagi panel regressiya modeli qo'llanildi:

$$MSI_{it} = \beta_0 + \beta_1 ICS_{it} + \beta_2 CAR_{it} + \beta_3 NPL_{it} + \beta_4 DI_{it} + \beta_5 SIZE_{it} + \mu_i + \tau_t + \epsilon_{it}$$

Bu yerda:

$MSI_{(it)}$ – bank i ning t davrdagi moliyaviy barqarorlik indeksi;

$ICS_{(it)}$ – ichki nazorat samaradorligi indeksi;

$CAR_{(it)}$, $NPL_{(it)}$, $DI_{(it)}$, $SIZE_{(it)}$ – nazorat o'zgaruvchilar (kapital yetarliligi, muammoli kreditlar ulushi, raqamlashtirish darajasi, bank hajmi);

μ_i – bankka xos individual effektlar;

τ_t – vaqt bo'yicha o'zgarishlar;

ϵ_{it} – stoxastik (taxminiy) xatolik.

Model GMM (Generalized Method of Moments) orqali baholandi, bu esa endogenlik muammosini kamaytirish va natijalarning barqarorligini oshirish imkonini berdi. Modelga t- va F-statistikalar qo'llanilib, natijalar ishonchligi tekshirildi.

Metodologiyaning chuqurligini oshirish maqsadida qo'shimcha tahliliy usullar ham qo'llanildi: korrelyatsion matritsa — ichki nazorat tizimi va MSI o'rtasidagi to'g'ridan-to'g'ri bog'liqlikni aniqlash;

Solishtirma tahlil (benchmarking) — yuqori va past ichki nazorat tizimi darajasiga ega banklarning moliyaviy natijalarini taqqoslash;

Robustlik testi — model barqarorligini tasdiqlash uchun o'zgaruvchilarni turli konfiguratsiyalarda sinovdan o'tkazish;

Ekspert tahlili — intervyulardan olingan sifatli ma'lumotlarni tematik kodlash orqali miqdoriy natijalar bilan integratsiya qilish.

Umuman olganda, metodologik yondashuv ICS–MB o'zaro bog'liqligini ko'p o'lchovli, tizimli va empirik asosda tahlil qilish imkonini berdi. Bunday kombinatsiyalashgan metod nafaqat statistik asosni, balki boshqaruv, inson resurslari va raqamlashtirish jarayonlarining amaliy ta'sirini ham hisobga oldi, natijada ichki nazorat tizimining moliyaviy barqarorlikdagi haqiqiy rolini chuqur yoritib berdi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot natijalari ichki nazorat tizimi (ICS) samaradorligi va banklarning moliyaviy barqarorlik darajasi (MSI) o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni empirik ravishda isbotladi. Ma'lumotlar tahlili 2021–2025-yillar oralig'ida O'zbekistonning 23 ta tijorat banki misolida olib borildi. Panel ma'lumotlar regressiyasi (FE, RE va GMM modellari) yordamida ichki nazorat tizimi indeksining moliyaviy barqarorlik indikatorlariga (CAR, ROA, LCR, NPL) ta'siri aniqlashtirildi. Natijalar ichki nazorat tizimi kuchaygani sari banklarning rentabelligi, likvidligi va kapital yetarliligi oshayotganini, muammoli kreditlar ulushi esa kamayib borayotganini ko'rsatdi.

Tadqiqot davrida O'zbekiston bank sektorida moliyaviy barqarorlikning izchil yaxshilanish tendensiyasi kuzatildi. Quyidagi jadval asosiy indikatorlarning o'sishini aks ettiradi:

1-jadval

Moliyaviy barqarorlik ko'rsatkichlarining umumiy dinamikasi (2021–2025)

Yil	Kapital yetarliligi (CAR)	Muammoli kreditlar (NPL)	Likvidlik (LCR)	Aktivlar rentabelligi (ROA)
2021	17.1%	5.2%	122%	1.4%
2022	16.9%	4.7%	126%	1.6%
2023	17.4%	4.3%	131%	1.9%
2024	17.8%	4.1%	134%	2.2%
2025	18.2%	3.8%	139%	2.5%



Jadval ma'lumotlariga ko'ra, 2021–2025-yillar davomida kapital yetarliligi (CAR) 1.1 punktga, ROA esa 1.1 punktga oshgan. NPL ulushi 5.2% dan 3.8% gacha kamayib, bu ichki nazorat va risk boshqaruvi mexanizmlarining yaxshilanishi bilan bevosita bog'liqdir. Likvidlik darajasi 122% dan 139% gacha ko'tarilib, banklar qisqa muddatli majburiyatlarni qoplashda yanada barqaror bo'lganini ko'rsatadi.

Ichki nazorat samaradorligi 2021–2025-yillar oralig'ida sezilarli darajada oshgan. Quyidagi 2-jadvalda ichki nazorat tizimi indeksining tarkibiy komponentlari bo'yicha o'zgarishlar keltirilgan:

2-jadval

Ichki nazorat samaradorligi (ICS) dinamikasi

Yil	ICS (umumiy)	IT-Audit	AML/KYC	Risk Monitoring	Compliance	Raqamlashtirish
2021	5.2	0.5	0.6	0.6	0.5	0.4
2022	5.8	0.6	0.7	0.7	0.6	0.5
2023	6.4	0.8	0.8	0.8	0.7	0.7
2024	6.9	0.9	0.9	0.9	0.9	0.8
2025	7.4	1.0	1.0	1.0	1.0	1.0

Jadval ma'lumotlariga ko'ra, ichki nazorat tizimining o'sish sur'ati 42% ni tashkil etdi. Eng katta ijobiy o'zgarish IT-audit va AML tizimlari rivojlanishida kuzatildi. 2023 yildan boshlab raqamlashtirish jarayonlari, masalan, avtomatik fraud-detection tizimlari va compliance chatbotlarining joriy etilishi ichki nazorat tizimi samaradorligini sezilarli darajada oshirgan.

Pearson korrelyatsiya koeffitsiyentlari ichki nazorat tizimi indeksining moliyaviy barqarorlik indikatorlari bilan o'zaro bog'liqligini tasdiqladi:

3-jadval

Korrelyatsion tahlil natijalari

Ko'rsatkichlar juftligi	Korrelyatsiya (r)	Bog'liqlik yo'nalishi
ICS ↔ ROA	+0.67	Ijobiy, kuchli
ICS ↔ CAR	+0.59	Ijobiy, o'rtacha
ICS ↔ LCR	+0.71	Ijobiy, kuchli
ICS ↔ NPL	-0.64	Salbiy, kuchli

Jadval ma'lumotlariga ko'ra, natijalar ichki nazorat tizimi va moliyaviy barqarorlik o'rtasidagi mustahkam bog'liqlikni ko'rsatadi. Ayniqsa, ichki nazorat tizimi bilan LCR (likvidlik) o'rtasidagi +0.71 koeffitsiyent bankning to'lovga qobiliyatini oshirishda ichki nazoratning hal qiluvchi rolini ko'rsatadi. NPL bilan salbiy bog'liqlik (-0.64) esa ichki nazorat tizimi kuchaygan sari muammoli kreditlar kamayishini bildiradi.

Panel regressiya (GMM modeli) natijalari quyidagicha ifodalandi:

$$MSI_{it} = 0.312ICS_{it} - 0.94NPL_{it} + 0.41ROA_{it} + 0.076(ICS \times DI) + \mu_i + \tau_t + \epsilon_{it}$$

4-jadval

Ekonometrik model natijalari

O'zgaruvchi	Koeffitsiyent (β)	t-stat	P-value	Ta'sir yo'nalishi
ICS	+0.312	4.11	0.000	Ijobiy
NPL	-0.940	-5.09	0.000	Salbiy
ROA	+0.410	2.56	0.014	Ijobiy
ICS×DI (Raqamlashtirish)	+0.076	2.11	0.038	Ijobiy
CAR	+0.185	1.89	0.059	Ijobiy (chegaraviy)

Jadval ma'lumotlariga ko'ra, empirik natijalar ichki nazorat samaradorligi banklarning moliyaviy barqarorlik indeksiga (MSI) sezilarli ta'sir ko'rsatishini aniq ko'rsatmoqda. Ichki nazorat tizimi 1 ballga oshganda, MSI o'rtacha 0.31 punktga oshadi ($p < 0.01$). Shu bilan birga, ICS oshganda NPL 0.94 punktga kamayadi, ROA esa 0.41 punktga oshadi. Bu ichki nazoratning samarali ishlashi bank risklari kamayib, aktiv rentabelligi yaxshilanishini isbotlaydi.

Raqamlashtirish (DI) bilan ICS o'zaro ta'sirining ijobiy natijasi (+0.076) ICS samaradorligi raqamli transformatsiya jarayonlari bilan birgalikda kuchayishini ko'rsatadi. Ya'ni, raqamlashtirilgan banklarda ichki

nazoratning moliyaviy barqarorlikka ta'siri yanada yuqori.

5-jadval

Yuqori va past ICS darajasiga ega banklarning solishtirma tahlili

Guruh	O'rtacha ICS	ROA	NPL	MSI
Yuqori ICS (≥ 7.0)	7.3	2.6%	3.4%	0.82
O'rta ICS (5.0–6.9)	6.0	1.9%	4.2%	0.75
Past ICS (< 5.0)	4.6	1.3%	5.5%	0.69

Jadval ma'lumotlariga ko'ra, ichki nazorati kuchli banklar ($ICS \geq 7$) yuqori foyda darajasiga, past NPL ko'rsatkichiga va mustahkam MSI indeksiga ega. Bu ICS samaradorligi faqat nazorat vositasi emas, balki strategik boshqaruv elementi ekanligini ko'rsatadi.

Raqamlashtirish ICS samaradorligini 7–8% ga oshirgan, xususan:

AI asosidagi risk-detektorlar firibgarlik holatlarini 40% ga qisqartirgan;

AML/KYC avtomatlashtirish kredit xavflarini 25% kamaytirgan;

IT-audit vositalari xatoliklarni 30% tezroq aniqlagan.

Inson kapitali (auditor va compliance mutaxassislar malakasi) ICS samaradorligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi — malakali kadrlar mavjud bo'lgan banklarda ICS indeksi o'rtacha 20% yuqori qayd etilgan. Bu esa bilim va tajriba ichki nazoratning texnik vositalaridan ham muhimroq omil ekanini isbotlaydi.

Umuman olganda, tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, ichki nazorat tizimi O'zbekiston banklarining moliyaviy barqarorligi uchun strategik boshqaruv omili hisoblanadi. Ichki nazorat tizimi faqat nazorat vositasi sifatida emas, balki barqarorlikni mustahkamlovchi, rentabellikni oshiruvchi va risklarni kamaytiruvchi integral mexanizm sifatida faoliyat yuritmoqda. Shu bois, banklar ichki nazorat tizimini raqamlashtirish, IT-auditni kuchaytirish va kadrlar malakasini oshirish orqali yanada takomillashtirishlari lozim.

O'tkazilgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, ichki nazorat tizimi (ICS) banklarning moliyaviy barqarorligini ta'minlashda markaziy determinant sifatida muhim omil ekanini ko'rsatdi. Ichki nazorat tizimi nafaqat audit vositasi, balki bank boshqaruvining strategik funksiyasi, risklarni erta aniqlash va moliyaviy xavfsizlikni kafolatlovchi mexanizm sifatida faoliyat yuritmoqda. Empirik tahlil asosida aniqlangan asosiy uchta mexanizm ichki nazorat tizimi va moliyaviy barqarorlik o'rtasidagi bog'liqlikni amalda tasdiqlaydi.

Birinchiidan, risklarni erta aniqlash mexanizmi ichki nazorat tizimining eng muhim ustunidir. IT-audit, SIEM (Security Information and Event Management) tizimlari hamda avtomatik signalizatsiya mexanizmlari orqali xatoliklar, firibgarlik holatlari va kredit portfelidagi nomuvofiqliklar erta bosqichda aniqlanmoqda. Bu esa banklarga muammolarni kechikmasdan bartaraf etish imkonini bermoqda. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, IT-audit va raqamli monitoring tizimlari joriy etilgan banklarda NPL darajasi 30% gacha kamaygan, bu esa ichki nazorat tizimining xatarlarni erta aniqlashdagi real samaradorligini ifodalaydi.

Ikkinchiidan, resurslardan samarali foydalanish mexanizmi bank aktivlarini boshqarishda ichki nazorat tizimining ahamiyatini kuchaytirdi. Ichki nazorat tizimi kuchaygan banklarda aktivlardan foydalanish samaradorligi o'rtacha 2 baravar oshgan, bu esa ROA (aktivlar rentabelligi) ko'rsatkichida yaqqol ifodalangan. Nazorat mexanizmlarining aniq ishlashi kreditlash jarayonidagi yo'qotishlarni kamaytirgan, noto'g'ri qarorlar sonini qisqartirgan va xarajatlarni optimallashtirgan. Natijada banklarning foydadorlik darajasi o'sib, resurslar aylanish tezligi ortgan.

Uchinchiidan, ishonchni mustahkamlash ichki nazorat tizimi samaradorligining eng muhim ijtimoiy va institutsional natijasidir. Ichki audit mustaqilligi va shaffoflik darajasi ortgan banklarda investorlar ishonchi o'rtacha 23% ga yuqori bo'lgani kuzatildi. Bu esa bank kapitaliga xorijiy sarmoyalarni jalb qilishda, xalqaro reyting agentliklari bahosini yaxshilashda va kredit resurslarini arzonlashtirishda muhim omil bo'ldi.

Raqamlashtirish jarayonlari ichki nazorat tizimi samaradorligini sezilarli darajada oshirgan. Sun'iy intellekt asosida ishlab chiqilgan risk detektorlari, avtomatik AML/KYC tizimlari hamda compliance-chatbotlar firibgarlik holatlarini 40% gacha kamaytirgan. Bunday texnologiyalar inson xatoligini kamaytiradi, real vaqt monitoringi imkonini beradi va nazorat siklini tezlashtiradi. Shuningdek, RPA (Robotic Process Automation) asosidagi ichki audit vositalari jarayonlarni avtomatlashtirib, audit chastotasini 2,5 baravar oshirgan.

Shu bilan birga, tadqiqot ichki nazorat tizimi samaradorligida inson kapitali omilining hal qiluvchi ahamiyatini tasdiqladi. Auditor va compliance mutaxassislarining malakasi, tajribasi va kasbiy etikasining yuqoriligi ichki nazorat tizimi samaradorligini o'rtacha 20% ga oshirgan. Malakali auditorlar risklarni chuqur tahlil qilib, strategik qarorlar uchun ishonchli axborot taqdim etadi. Bu jihatdan banklarning o'z xodimlari uchun doimiy o'quv dasturlarini joriy etishi, "Compliance Academy" va "Risk Management Lab" kabi malaka oshirish platformalarini rivojlantirishi zarur.

Bundan tashqari, ICSning ta'siri institutsional ishonch va barqaror boshqaruv mezonlari bilan ham



mustahkam bog'liq. Mustaqil audit qo'mitalarining mavjudligi, kuzatuv kengashlari faoliyatining shaffofligi va "uch darajali himoya modeli" (Three Lines of Defense) asosida tashkil etilgan boshqaruv strukturalari ICSning real natijadorligini oshiradi.

Muhokama natijalari shuni ko'rsatadiki, ichki nazorat tizimi faqat moliyaviy xavflarni kamaytirish vositasi emas, balki bankning uzoq muddatli ishonchligi, iqtisodiy chidamliligi va raqamli transformatsiya muvaffaqiyati uchun strategik omildir. Shu bois ICSni boshqaruvning markaziy ustuvor yo'nalishiga aylantirish, uni raqamli vositalar, inson kapitali va mustaqil nazorat mexanizmlari bilan uyg'unlashtirish O'zbekiston bank tizimining kelgusidagi barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, ichki nazorat tizimi (ICS) banklarning moliyaviy barqarorligini ta'minlovchi eng muhim boshqaruv mexanizmlaridan biridir. Empirik tahlil asosida ichki nazorat tizimi samaradorligi 1 ballga oshganda, muammoli kreditlar ulushi (NPL) o'rtacha 0,9% ga kamayib, aktivlar rentabelligi (ROA) 0,4 foiz punktga ortishini aniqlash mumkin bo'ldi. Eng samarali komponentlar sifatida IT-audit, AML va compliance tizimlari ajralib chiqdi. Raqamlashtirish jarayonlari ichki nazorat tizimi samaradorligini 7–8% ga oshirgan bo'lsa, xodimlar malakasi va audit mustaqilligi inson omili sifatida tizim samaradorligini belgilovchi asosiy omillar bo'lib xizmat qilmoqda. Shunga ko'ra, ichki nazorat tizimini yanada takomillashtirish uchun quyidagi tavsiyalar beriladi: sun'iy intellekt asosida real vaqt risk-monitoring tizimini joriy etish; AML/KYC jarayonlarini avtomatlashtirish; firibgarlikni aniqlovchi (fraud detection) tizimlarni kuchaytirish; audit qo'mitasi vakolatlarini kengaytirish hamda kiberxavfsizlik siyosatlarini muntazam ravishda yangilab borish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Hadi M. H., Abdulzahra A. K., Hazen M. A. The Effectiveness of Internal Control Standards in Enhancing Financial Risk Management Efficiency in the Banking Sector // *European Journal of Management, Economics and Business*. 2025. Vol. 2, No. 5. P. 66–83. DOI: 10.59324/ejmeb.2025.2(5).06.
2. Suzdaltseva M. Predictors of Bank Risk: An Empirical Analysis of European Banks from 2010 to 2023. Master's Thesis. Tallinn University of Technology, 2025.
3. Koxherri G. The Effect of Non-Performing Loans on Bank Profitability: Evidence from the Albanian Banking Sector. Master's Thesis. Epoka University, 2025.
4. Goniszewski M. Performance of State-Controlled Banks on the Example of the Polish Banking Sector // *Scientific Papers of Silesian University of Technology. Organization and Management Series*. 2024.
5. Basel Committee on Banking Supervision. Principles for Effective Risk Data Aggregation and Risk Reporting. Basel: Bank for International Settlements, 2013.
6. Basel Committee on Banking Supervision. Basel III: Finalising Post-Crisis Reforms. Basel: Bank for International Settlements, 2017.
7. COSO. Internal Control — Integrated Framework. Committee of Sponsoring Organizations of the Treadway Commission, 2013.
8. International Monetary Fund. Financial Soundness Indicators Compilation Guide. Washington, D.C.: International Monetary Fund, 2019.
9. OECD. Risk Management and Corporate Governance. Paris: OECD Publishing, 2014.
10. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Bank tizimi statistik byulleteni va moliyaviy barqarorlik ko'rsatkichlari. 2021–2025-yillar ma'lumotlari. Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki.
11. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Tijorat banklarining kapital yetarliligi, likvidlik va muammoli kreditlar bo'yicha statistik ma'lumotlari. 2021–2025-yillar. Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki.
12. Abdurahidov F., Nurmuxammedov A. Iqtisodiyot globallasuvi sharoitida xalqaro buxgalteriya hisobi tizimlarini shakllantirish // "Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali. 2023. № 6. B. 411–416.

muhandislik

& iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 5

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100